

TARIXIY MAVZUNING HIKOYADAGI TALQINI

*Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek
filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi
Ibodullayeva Quvonchoy*

Annotatsiya: Xurshid Davronning "Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat" asari tarixiy voqealarga asoslangan badiiy hikoya bo'lib, unda buyuk sarkarda Amir Temurning sevimli nabirasi Pirmuhammad Jahongir bilan suhbatlari orqali davlat boshqaruvi, meros va mas'uliyat masalalari yoritiladi. Hikoya Hindistonga yurish arafasida boshlangan. Asarda Amir Temur o'z hayotiy tajribasi va donishmandligini bo'lajak merosxo'riga o'rgatishga urinadi. Badiiy rivoyat shaklida yozilgan bu asarda tarix, falsafa va ruhiy kechinmalar uyg'unlashtirgan. Asar o'zbek adabiyotidagi tarixiy-badiiy yondashuvning yorqin namunalaridan biridir.

Kalit so'zlar: Xurshid Davron, Amir Temur, Pirmuhammad Jahongir, tarixiy rivoyat, o'zbek adabiyoti, nabira va boboning suhbat, Hind yurishi, davlat boshqaruvi, tarixiy obraz.

Abstract: Khurshid Davron's "The Legend about the Death of Amir Temur's Son" is a historical-fiction narrative based on real events. Through the conversations between the great commander Amir Temur and his beloved grandson Pirmuhammad Jahongir, the story explores themes such as state governance, inheritance, and responsibility. The narrative begins on the eve of the campaign to India. In the story, Amir Temur attempts to pass on his life experience and wisdom to his future heir. Written in the form of a literary legend, the work harmonizes history, philosophy, and inner emotional reflections. This story stands as a vivid example of the historical-literary approach in Uzbek literature.

Keywords: Khurshid Davron, Amir Temur, Pirmuhammad Jahongir, historical legend, Uzbek literature, dialogue between grandfather and grandson, Indian campaign, state governance, historical figure.

Barchamizga ma'lumki, *Insoniy komillik o'tmishni anglashdan boshlanadi. Chinakam ma'rifat egasi olis moziydan ozuqa oladi, istiqobol va istiqlol ne'mati ana shunday ziyoli maqomidagi qalb va shuur sohiblariga ko'proq bahra beradi* – Xurshid Davronning tarixiy mavzudagi badialari mazmun-mohiyatini mazkur haqiqatlar tashkil etadi. Jumladan, "Massagetlar malikasi va forslar podshohi", "Bosqinchilik qahramonlik bo'ladimi?", "Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat" badialari o'tgan asrning 80-yillar oxiridagi o'zbek tarixiy ma'rifatnomasida hodisaga aylandi.

Xurshid Davron — zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lib, u o'z ijodida tarixiy haqiqat bilan badiiy tasvirni muvaffaqiyatli uyg'unlashtira

olgan ijodkordir. Uning “Amir Temur o‘g‘lining o‘limi haqida rivoyat” nomli hikoyasi ham tarixiy shaxsiyat va voqealarni chuqr falsafiy mushohada bilan yoritgan asarlaridan biridir.

Ushbu hikoya ulug‘ sarkarda Amir Temurning o‘g‘li — Sohibqironning eng suyukli farzandi ya’ni Amir Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir mirzoning farzandi Pirmuhammad Jahongir o‘limi atrofida qurilgan bo‘lib, muallif uni rivoyat shaklida, ya’ni badiiy talqin bilan bayon etadi. Asarda voqealarning tashqi tafsilotlaridan ko‘ra, voqialar va xarakterlar mantig‘i ustuvorlik qiladi.

Xurshid Davron hikoyaning markaziga , insoniy kechinmalarni — buyuk sarkardaning yuragidagi iztirobni joylashtiradi. Asarda Temurning o‘g‘li vafoti bilan bog‘liq voqeа atrofida tasvirlangan holatlar, dialoglar va tabiat manzaralari orqali tarixga poetik nigoh bilan yondashilgan. Hikoyaning rivoyat shaklida yozilgani uni xalq og‘zaki ijodiga uyg‘unlashtiradi, shu bilan birga, voqeа mohiyatini zamonaviy o‘quvchiga sezilarli darajada uyg‘unlashtiradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakili Xurshid Davron o‘z ijodida tarixiy shaxslar hayoti va taqdirini badiiy tafakkur orqali yoritishga katta e’tibor qaratadi. Uning “Amir Temur o‘g‘lining o‘limi haqida rivoyat” nomli hikoyasi ham tarixiy voqelik va insoniy kechinmalarni chuqr mushohada bilan birlashtirgan asar sifatida ajralib turadi. Asar yuzaki qaralganda Amir Temurning Hindistonga yurish rejalarini bilan boshlangandek tuyuladi, ammo voqealar rivoji Sohibqironning nabirasi Pirmuhammad Jahongir obraziga bog‘lanib, asarning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Hikoya Amir Temurning yillar davomida orzu qilgan Hind yurishiga tayyorgarlik ko‘rishi bilan boshlanadi. Bu — tarixiy fon, biroq muallif bu yurishning tafsilotlariga chuqr kirib bormaydi. Asarning asosiy diqqat markazida buyuk sarkardaning sevimli nabirasi Pirmuhammad Jahongirga bo‘lgan munosabati, unga qaratilgan saboqlar va davlat boshqaruvi borasidagi vasiyatlari turadi. Bu esa hikoyani nafaqat tarixiy rivoyat, balki ma’naviy-falsafiy asar darajasiga olib chiqadi.

Xurshid Davron asarda Amir Temurni faqat zabardast sarkarda emas, balki dono boboning, zukko siyosatchining, mas’uliyatli tarbiyachi obrazida ko‘rsatadi. Sohibqiron nabirasi Pirmuhammad Jahongirga qarata aytayotgan nasihatlari orqali unga davlatni qanday boshqarish, adolatli hukmron bo‘lish, sabr, aql va tafakkur bilan ish yuritish haqida o‘z hayotiy tajribasini o‘rgatadi. Bu suhbatlar zamirida saltanatni faqat kuch bilan emas, donolik va odil boshqaruv orqali barpo qilish zarurligi yotadi.

Asar badiiy ifoda vositalari, ramziy obrazlar, tilning nafisligi jihatidan ham e’tiborga loyiq. Amir Temurning dardini tasvirlash orqali muallif faqat tarixiy shaxsni emas, balki bir otaning yuragidagi og‘riqni butun borlig‘i bilan his ettiradi. Bu esa tarixiy rivoyatga insoniylik ruhini singdiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Amir Temur o‘g‘lining o‘limi haqida rivoyat” hikoyasi — Kurshid Davron ijodining tarixiy badiiy yondashuvga asoslangan eng nozik namunalaridan biridir. Bu asar orqali nafaqat Temuriylar davrining bir sahifasi, balki inson ruhiyatining nozik jilvalari ham o‘quvchi qalbiga yetkaziladi.

Foydalanimgan adabiyot

1. **Xurshid Davron. “Amir Temur o‘g‘lining o‘limi haqida rivoyat” (1990)**
2. **Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.**
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/> Amir Temur o‘g‘lining o‘limi haqida rivoyat.html
4. U.Normatov. (1970) Janr imkoniyatlari. Toshkent: Adabiyot va san’at